



FIRIBGARLIK JINOYATLARI OLDINI OLISH PROFILAKTIKASI ISHLARI

*O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tингlovchisi Mirzraximov
Zohirjon Ochilovich*

Annotatsiya: maqolada firibgarlik jinoyati tushunchasi, uning tarkibi tahlil qilingan, mazkur jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Firibgarlik, aldash, ishonchni suiiste'mol qilish, javobgarlik, jazo.

Mamlakatimizda keyingi vaqtarda firibgarlik jinoyatlari soni ko'payib borayotganligi tashvishlanarli hol hisoblanadi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib borayotganligi, Internet jahon axborot tarmog'idan hamda elektron to'lov tizimlaridan foydalanuvchilar soni ko'payib borayotganligi o'z navbatida ushbu sohalarda firibgarlik jinoyatlari soni oshishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017 yil 11 oktyabrdagi Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risidagi 35-sod qarorida firibgarlik jinoyati ko'rinishlari batafsil ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, firibgarlik o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan qonunga xilof ravishda va tekin qo'lga kiritishda ifodalanib, buning ta'sirida mulkdor (uning vakili), mulkning boshqa egasi yoki vakolatli organ mulkni yoki unga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga beradi, yoinki ushbu mulk yoki unga bo'lgan huquq boshqa shaxs tomonidan olib qo'yilishiga imkoniyat beradi.

Firibgarlikda yolg'on ma'lumotlarga jabrlanuvchini yanglishtirishga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar, jumladan, yuridik fakt va voqealar, mulkning sifati, narxi, aybdorning shaxsi, uning vakolati, niyati (masalan, aybdor shaxs o'zini mansabdor shaxs yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi sifatida ko'rsatishi) taalluqli bo'lishi mumkin.



Firibgarlikda jabrlanuvchini yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan harakatlar jumlasiga, masalan, bitim yoki to‘lov predmetini soxtalashtirish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni o‘ynash chog‘ida aldov usullarini qo‘llash va h.k. kiradi.

Firibgarlikda ishonchni suiiste’mol qilish deganda, aybdorning mulkdor, mulkning boshqa egasi yoki mulknini uchinchi shaxslarga berib yuborish to‘g‘risida qaror qabul qilishga vakolatli boshqa shaxslar bilan ishonchli munosabatlardan g‘arazli maqsadlarda foydalanishi tushunilishi lozim. Ishonchga turli holatlar, masalan, aybdor shaxsning xizmat mavqeい yoki uning jabrlanuvchi bilan shaxsiy yoki qarindosh-urug‘lik munosabatlari sabab bo‘lishi mumkin.

Firibgarlikning kriminologik tavsifi ushbu jinoyat o‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy vaziyat, shaxsning psixologik va ijtimoiy mavqeiga, oilada olingan tarbiyaga yoki mehnat qilinayotgan muhitga alohida bog‘liqligi, shuningdek, firibgarlikning sabablari va unga imkon bergen shart-sharoitlarni aniqlashda mamlakatdagi korrupsiya holati va ishsizlik darajasi ham alohida o‘ringa ega ekanligi aniqlangan.

Firibgarlik sodir etgan shaxslar aksariyat hollarda zarur malaka va mutaxassislikka ega bo‘lganligi sababli, ular o‘z mehnat faoliyatları yoki mansab vakolatlaridan kelib chiqqan holda odamlarning ishonchiga kirib, ularga mulkiy zarar etkazganlar. Jabrlanuvchilar odatda firibgar shaxsi va mavqeい haqida yanglish tasavvurga ega bo‘lib, ularga ishonch bildirib, aldanib qoladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jinoiy jazoni ijro etish bosh boshqarmasi tizimidagi jazoni ijro etish muassasalarida JK 168-moddasi bo‘yicha jazoni o‘tayotgan 1395 nafar mahkum o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda ularning 527 nafarini 31-40 yoshdagi, 406 nafarini 41-60 yoshdagi, 344 nafari 18-30 yoshdagi shaxslar ekanligi aniqlangan.

Firibgarlikning geografiyasiga ko‘ra, uning salmoqli qismi Toshkent shahri (20 %), Farg‘ona viloyati (13 %), Samarqand viloyati (9,7 %), Toshkent viloyati (8,6 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.



So'rov natijasiga ko'ra, firibgarlarning ma'lumoti va intellekti darajasi tahlil etilganida, ularning 483 nafari o'rta maxsus, 462 nafari o'rta, 401 nafari oliy ma'lumotli bo'lgan.

Firibgar shaxsiga xos bo'lgan quyidagi individual belgilar aniqlangan: aql-zakovatining yaratuvchilik mahoratiga ega ekanligi, uddaburonlik, artistlik belgilarga ega ekanligi, osonlikcha muloqotni yo'lga qo'ya olishi, xushmuomalalik, atrofdagilarda yaxshi taassurot qoldirish qobiliyat, ayyorlik, faollik, tez qaror qabul qilishi, ishontirish qobiliyatining mavjudligi, voqealar rivojini rejalashtirish qobiliyatiga egaligi, moslashuvchanlik va egiluvchanlik, tavakkal qilish darajasining yuqoriligi, o'zini o'zi nazorat qilishning yuqori darajasi, sabrlilik va boshqalar.

Firibgarlikning oldini olishda jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishidagi o'rni, uning xulqi va huquqiy ongi darajasi alohida muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda firibgarlikning yangidan-yangi turlari paydo bo'lmoqda. Jumladan internet axborot tizimi orqali biznes qilish bo'yicha taklif kiritish, plastik karta raqamini turli bahonalar bilan olish va undan mablag'larni echib olish, xorijga ishga yuborishni va'da qilib aldash orqali mablag'larni qo'lga kiritish, lizingga avtomobil olib berish, xorijiy davlatlarda o'ishga kiritib qo'yish, o'qishini ko'chirib berish sohalarida hujjatlarni qalbakilashtirib firibgarlik qilish ko'payib bormoqda.

Bunday jinoyatlar ko'payishining asosiy sabablaridan biri sifatida jabrlanuvchilarning o'z ehtiyojlarini tezroq, belgilangan qoidalarni aylanib o'tish orqali qondirishga bo'lgan qarashlari mavjudligi, tezda boyib ketish istagini kuchliligi, ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'idagi reklamalarga o'ta ishonuvchanligini ko'rsatish mumkin.

Ushbu jinoyatda takroran sodir qilish holatlari yuqoriligi, ko'p hollarda firibgarlik jinoyatini sodir qilgan shaxslarga nisbatan javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutlari qo'llanilishi tufayli jazodan qo'rmasligi bilan tavfsiflash mumkin. Sud-tergov amaliyotida bir shaxsning firibgarlik uchun 8-10 martagacha sudlanganlik holati, hatto oldingi qilmishlari uchun tergov-sud jarayonlari ketayotgan vaqtda ham firibgarlik qilmishlarini



davom ettirayotganlar uchrayotganligi, firibgarlik uchun javobgarlik masalasini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Firibgarlikda jabrlanuvchini yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan harakatlar jumlasiga, masalan, bitim yoki to'lov predmetini soxtalashtirish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'ynash chog'ida aldov usullarini qo'llash va hokazo kiradi.

Aldashni, firibgarlikning usuli sifatida quyidagi ikki turga ajratish mumkin:

- 1) faol aldash;
- 2) faol bo'lman aldash (passiv).

Faol aldash, yolg'on bo'lgan ma'lumotlarni yetkazish vositasi yordamida mulkdorni chalg'itishida tashkil topadi. Masalan: qalbaki hujjatlarni namoyish qilish yoki boshqa harakatlar bilan mulkdorning mulkini aybdor egaligiga o'tkazishda jabrlanuvchida xato tasavvurga ega bo'lishi.

Faol bo'lman aldash (passiv), jabrlanuvchiga yuridik ahamiyatga ega faktik holatlar haqida aybdor xabar berishi shart bo'lgan, ma'lumotlarni gapirmaslik va bu kabi xabarlarni yetkazmasligida tashkil topadi [5]. Bu kabi holatlar natijasida aybdorga mulkni berayotgan shaxsda, mulkni berish uchun qonuniy asoslar borligiga chalg'ishi mumkin bo'lgan holatlarni tushunish kerak. Masalan: mulkdor hayotidan mahrum etishidan avval advokatga o'ziga tegishli bo'lgan mulklarni yaqin qarindoshlariga o'tkazib berish to'g'risidagi ma'lumotlarning uning yaqin qarindoshlariga aytmasdan o'z foydasiga o'tkazish bilan bog'liq harakatlarni sodir etishi. Aldash jabrlanuvchida mulkni aybdor egaligiga o'tkazishida, tashqi tomondan qonuniy asoslar mavjud bo'lgani holda kelishuvga olib kelishi mumkin. Masalan: aybdorlar ichki ishlari idoralari kiyimini kiyib qalbaki hujjatlarni namoyish qilgan holda jabrlanuvchining xonadonida tintuv o'tkazadi va muayyan qimmatliklarga ega bo'lgan mulklarni olib, mulkni olib qo'yish to'g'risida bayonnomaga tuzadi hamda voqeа joyidan yashirinadi.

Amaliyotda qalbaki hujjatdan foydalangan holda firibgarlik jinoyati sodir etilishi ko'p uchraydi. Bunda hujjat kim tomonidan tayyorlangan yoki soxtalashtirilganligidan kelib chiqib, jinoyatlar majmui tarzida Jinoyat kodeksining 168-moddasi va 228-moddasi tegishli



qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Firibgarlikni iqtisodiyot sohasidagi qator jinoyatlardan, shu jumladan, o‘zganing mulkini talon-toroj qilishning boshqa shakllaridan farqlash lozim. Firibgarlikning o‘g‘irlilikdan (JK 169-m.) farqi shundaki, firibgarlikda aybdor mulkni o‘zganing egaligidan olib qo‘ymaydi, balki u tomonidan yanglishtirilgan jabrlanuvchining o‘zi mulkni yoki mulkka bo‘lgan huquqni berishiga erishadi. Tovlamachilikdan (JK 165- m.) firibgarlik shu bilan farqlanadiki, tovlamachilikda jabrlanuvchining erki sindirilgan bo‘ladi va u qo‘rquv ta’siri ostida harakat qiladi, firibgarlikda esa aldov natijasida jabrlanuvchining erki yanglishadi. Firibgarlik jinoyatidan o‘tkazish maqsadida qalbaki bank biletlari (banknotlar), metall tangalar, aksiz markalari, shuningdek qimmatli qog‘ozlar yoki chet el valyutasi yoxud chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar yasash, ularni o‘tkazish (JK 176-m.) qasd yo‘nalishi va soxtalashtirish xususiyati bilan farqlanadi. Bunda pul belgisi yoki chet el valyutasi pul aylanmasiga kiritish uchun soxtalashtiriladi.

Adabiyotlar:

1. Altiev R.S. Firibgarlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari. YURidik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2020. 3-b.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/uz/docs/111453>
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017 yil 11 oktyabrdagi Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risidagi 35-son qarori <https://lex.uz/uz/docs/3399888>